

**QALQONSIMON BEZNING HUJAYRA TUZILMALARI
TUZILISHLARINING MORFOFUNKSIONAL XUSUSIYATLARI**

Xamedova Firuza Saidovna

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti,

O'zbekiston, Buxoro, A.Navoiy ko'chasi. 1

Tel.: +998 (65) 223-00-50

Annotatsiya

Qalqonsimon bez endokrin bezlar orasida o'zining masasi va o'lchamlari bilan yirikroq bez hisoblanadi va shu bilan birgalikda organizm uchun muhim bo'lgan garmonlarni oganizmda sintez qiladi. Oq zotsiz kalamushlar qalqonsimon bezi me'yoriy morfologik xususiyatlarini bilish zamonaviy morfologiyada ushbu bez patologiyalariga erta tashxis qo'yish, davolash va asoratlarning oldini olish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: oq zotsiz kalamushlar, qalqonsimon bez, morfologiya, tireotsit hujayralari.

**MORPHOFUNCTIONAL FEATURES OF THE STRUCTURES
OF THE CELLULAR STRUCTURES OF THE THYROID GLAND**

Khamedova Firuza Saidovna

Bukhara State Medical Institute

named after Abu Ali ibn Sino,

Uzbekistan, Bukhara, A.Navoiy str. 1

Tel.: +998 (65) 223-00-50

Annotation

The thyroid gland is the largest gland among the endocrine glands in terms of its mass and size, and at the same time synthesizes hormones important for the body in the body. Knowledge of the normal morphological features of the thyroid gland of white-bred rats allows for early diagnosis, treatment and prevention of complications of pathologies of this gland in modern morphology.

Keywords: white-bred rats, thyroid gland, morphology, thyrocyte cells.

МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ СТРУКТУР КЛЕТОЧНЫХ КОМПОНЕНТОВ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ

Хамедова Фируза Саидовна

Бухарский государственный медицинский институт
имени Абу Али ибн Сино, Узбекистан, Бухара, ул. 1

Тел.: +998 (65) 223-00-50

Аннотация

Щитовидная железа — самая крупная железа среди эндокринных желез по массе и размерам, и одновременно синтезирует гормоны, важные для организма. Знание нормальных морфологических особенностей щитовидной железы беспородных крыс позволяет проводить раннюю диагностику, лечение и профилактику осложнений патологий этой железы в современной морфологии.

Ключевые слова: беспородные крысы, щитовидная железа, морфология, тиреоциты.

Tadqiqotning maqsadi Qalqonsimon bezning hujayra tuzilmalari tuzilishlarining morfofunktsional xususiyatlarini o'rganish.

Tadqiqotning material va metodlari Eksperimental tadqiqotlar uchun har ikkala jinsdagi 3 oylik yoshdagi 150 ta oq zotsiz kalamushlar tanlangan. Barcha laboratoriya hayvonlari standart vivarium sharoitida va bir xil vaqtda saqlandi. Ushbu laboratoriya hayvonlari mavjud kasalliklarni aniqlash, tana holati va yoshini baholash uchun va vivariyga yuqumli kasalliklarning kirib kelishini oldini olish maqsadida laboratoriya hayvonlari karantinga olindi.

Tadqiqot jarayoni davomida kalamushlarning o'sish va rivojlanish dinamikasi, ularning umumiy holati va xulq-atvori bo'yicha kuzatuvlar o'tkazildi. Hayvonlarning umumiy ahvoli va xulq-atvorida hech qanday o'zgarish bo'lmaganligi aniqlandi. Shundan so'ng tajriba hayvonlari ertalab tegishli vaqtda taroziga tortildi, och qoringa efir yordamida anesteziyasi ostida dekapitatsiya qilindi va tajribaga olindi. Hayvonlar o'ldirish laboratoriya hayvonlaridan foydalangan holda tibbiy-biologik tadqiqotlari bo'yicha xalqaro tavsiyalarga muvofiq amalga oshirildi. Qalqonsimon bez ajratib olinganidan so'ng tozalanib, ularning vazni laboratoriya tarozisida aniqlanib, o'lchandi, shuningdek organning uzunligi, kengligi va qalinligi shtangesirkulyar yordamida o'lchandi va gistologik usulda tekshirildi.

Tadqiqot natijalari

Qalqonsimon bezning faoliyatining aktivlik holatiga ko'ra tireotsit hujayralarining shakli yassi, kubsimon va silindr shaklda bo'lishi mumkin. Follikula bo'shlig'ida joylashgan koloid bir jinsli tiniq suyuqlik bo'lib gemotoksilin-eozin bo'yoq bilan bo'yalganda tiniq pushti rangda bo'yaladi. Tireotsit hujayralari sitologik ko'rganda ularda endoplazmatik to'r, lizosoma, mitoxondriya va fagolizosomalar yaxshi rivojlangan. Tireotsit hujayralari va qon tomir kapillyarlari orasida bazal membrana va g'ovak biriktiruvchi to'qima qavati joylashgan. Bezning arxitektonikasi ko'rganda follikulalarni kapillyarlar to'ri qalin to'r ko'rinishida o'rab oladi va tireotsitlar bilan zich bog'lanib turadi. Qalqonsimon bezni shartli ravishta markaziy va periferik kislmlarga bo'lib o'rganildi. Qalqonsimon bez markaziy qismida karpillyarlar diametri

10,78±0,14 mkm, tomirlar yuzasi sonini standart yuzada ko'rganimizda 127,53±3,41 va ularning kesmalari yuzasi esa 11,78±0,11x10³ mkm² tashkil qiladi. Epiteliy yuzasi, kolloid follikula ichidagi briktiruvchi to'qima va tomirlarning o'zaro nisbatini ko'rganda tireoid epiteliysi nisbatin yuqoriroq ekanligi aniqlandi. va shu tomirlarga nisbati ko'rilganda 9,3±0,3 % tashkil qiladi. Qalqonsimon bezning periferik sohasi kapillyarlar diametri markaziy qismga nisbatan kengroq hisoblanadi. Tomir kesimi zichligi periferik qismda nisbatan kamroq hisoblanadi, mikrosirkulyator tomirlar yuzasi tireoid epiteliysining qon bilan taminlanishi markaziy qismga nisbatan kamroq hisoblanadi. Markaziy qismda joylashgan follikulalar shakli oval va yumaloq shaklda bo'lib follikulalar diametri periferik qismda kattaroq hisoblanadi. Markaziy qismdagi follikulalardagi tireotsit hujayralar balandligi prizmatik shaklda bo'lib va periferik qismdagi tireotsit hujayralarning balandligi markaziy qismga nisbatan pastroq hisoblanadi va shakli kubsimon qismi ko'proq hisoblanadi.

Oq zotsiz kalamushlarning qalqonsimon bez ko'rsatkichlarini ko'rganda quyidagi natijalar olindi: kapillyar diametri markaziy qismda 10,78±0,14 mkm ni tashkil qildi. Kapillyar sonining zichligi markaziy qismida 127,53±3,41 periferik qismida 107,42±3,87 tashkil qiladi. Ko'ndalang kesimdagi kapillyarlarning umumiy yuzasi x 10³ mkm² markaziy qismida 11,78±0,11 periferik qismida 9,96±0,13 to'g'ri keladi. Tomir o'zanining nisbiy yuzasi % markaziy qismda 9,3±0,3 periferik qismda 8,6±0,4ni tireoid epiteliyning balandligi 6,68±0,24 periferik qismda esa 5,5±0,13 tashkil qiladi. Follikula diametri mkm markaziy qismida 37,98±0,26 periferik qismida 43,27±0,14, follikula yuzasi mkm² 1178,52±18,28 periferik qismida 1548,23±16,32 qismini tashkil qiladi. Follikula tarkibiy qismlarini o'zaro nisbati ko'rilganda tireoid epiteliy markaziy qismda 40,2±0,32 % periferik qismda esa 37,5±0,42 tashkil qiladi. Kolloid markaziy qismda 32,1±0,2 periferik qismda 42,1-0,3ni, stroma markaziy qismda 17,5±0,5 periferik qismi 12,8±0,4 ni tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Oq zotsiz kalamushlar qalqonsimon bez bo‘laklarining markaziy va periferik qismlari solishtirib, epiteliy hujayralari markaziy qismda ko‘proq qismni tashkil qilib, periferik qismda esa kolloid modda miqdori ko‘proq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гусейнов Т. С., Гусейнова С. Т., Малачилова М. М. Возрастная и вариантная анатомия щитовидной железы человека //Актуальные вопросы эндокринологии. – 2021. – С. 5-6.
2. Клименкова И. В., Кирпанёва Е. А. Особенности гистоархитектоники щитовидной железы лабораторных крыс //Актуальные проблемы интенсивного развития животноводства. – 2019. – №. 22 (2). – С. 202-208.
3. Кузнецов Е. В. и др. Эндокринные заболевания как медико-социальная проблема современности //Современные проблемы науки и образования. – 2017. – №. 4. – С. 62-63.
4. Смелова И. В., Головнева Е. С. Изучение морфофункциональных изменений фолликулов щитовидной железы крыс в норме и при гипотиреозе после воздействия среднеинтенсивного лазерного излучения //Вестник Российского государственного медицинского университета. – 2018. – №. 3. – С. 67-74.
5. Стадник Н.А., Боташева В.С. Морфология щитовидной железы при экспериментальном тиреотоксикозе // Кубанский научный медицинский вестник. -2014. -No 3 -С.102-108.